

BOLA NEGA O'ZINI YOMON TUTADI, INJIQLANADI YOKI GAP QAYTARADI?

Gulnoza Nazarova

*Namangan viloyati Uchqo`rg`on tumani MMBTga
qarashli 15-maktab amaliyotchi psixologi .*

Annotatsiya: *ushbu maqolada bolaning psixologiyasi, uning injiqlanishining sabablari, atrofidaqilar bilan janjallashishi, o'zining yomon tutishi va xulq-atvoridagi o'zgarishlar, ularning sabablari, uni bartaraf etish yo'llari haqida dikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *bola psixologiyasi, yaxshi xulq, yomon xulq, mustaqil qaror, muammo va yechim*

Bola nega injiq, nega gap qaytaradi, nega bo'ysunmaydi, nega aka- uka yoki opa-singillar bilan doim janjallashadi? Umuman bola nima uchun o'zini yomon tutadi? Farzandingiz o'zini yomon tutayotgan bo'lsa, demak buning tagida jiddiy sabablar bor. Yomon xulq bu kasallik emas, balki simptom ya'ni sababdir.

Yomon xulqni nima keltirib chiqaradi?

Bizdan 100 yil oldin yashab o'tgan avstraliyalik doktor va psixiatr Alfred Adler (1870-1937) bolalar psixologiyasini chuqur o'rganib, Adlerian nazariyasiga asos solgan. Adlerian nazariyasiga ko'ra bol o'zini yomon tutayotgan bo'lsa, buning tagida quyidagi sabablardan biri yotgan bo'lishi mumkin: Bola uzini ahamiyatli his qilmaydi. Har qanday xulqning ortida sabab va maqsad bo'ladi Yomon xulqli bola bu yomon bola emas, balki tushkunlikka tushgan boladir.

Yomon xulq sabablari

1. Bola o'zini ahamiyatli yoki kerakli his qilmaydi.

Har bir bolaning oziq-ovqat, boshpana va xavfsiz sharoitga bo'lgan ehtiyoji bu keraklilik va ahamiyatlilik hissidir. Bola o'zini kerakli his qilishi uchun ota-onasi bilan emotsional yaqin bo'lishi zarur. Bola o'zini ahamiyatli his qilishi uchun esa oilada,

maktabda va tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega ekanini his qilishi kerak. Buning uchun bola quyidagi tushunchalarga ega bo'lishi kerak: Mening qo'limdan keladi. Men kerakliman. Men o' hissamni qo'shaman va o'zgarishlarga sabab bo'laman. Men mustaqil qaror qabul qila olaman. Tabiiyki, yosh bola o'zi mustaqil qarorlar qabul qila olmaydi. Bolaning nima yeyishi, nima ichishi qachon uxlashi, nima kiyishi - hamma hammasini ota-onasi hal qiladi. Shunga qaramay, bola mustaqil qaror qabul qilishga ehtiyoji bo'ladi. Agar bu ehtiyoj qoplanmasa, bola buni o'zi istamagan holda yomon xulq orqali emas, balki bolada tanlash imkoniyati bo'lishi kerak.

2. Har qanday xulqning ortida sabab va maqsad bo'ladi.

Bola gap qaytarsa, aka-ukalari bilan janjallashsa, injiqlansa, demak bola o'zining bu hatti-harakatlari bilan biror maqsadga erishmoqchi. Ko'p hollarda bu maqsad ota yoki onasining e'tiboriga tushish bo'ladi. Bu e'tibor negativ bo'lsa ham bola uchun e'tibordir. Bola o'zini oilada va jamiyatda kerakli, ahamiyatli va e'tiborda his qilsa o'zini yomon tutib boshqalar salbiy bo'lsa ham e'tiborini o'ziga tortishiga sabab qolmaydi.

3. Yomon xulqli bola bu yomon bola emas, balki tushkunlikka tushgan boladir.

Bola o'zini kerakli va ahamiyatli his qilmasa, vaqt o'tib tushushni boshlaydi. Bola uxlashga yotishdan oldin 45 martalab sizni qayta qayta chaqiraversa, injiqlanaversa, aytganingizni qilmasa yoki bo'ysunmasa bola bunday hati-harakatlari orqali "Men ahamiyatli va kerakli bo'lishni his qilgim keladi, lekin bunga qanday erishishni bilmayabman"!, deyayotgan bo'ladi. Bola his-tuyg'ularini chiroyli so'zlar bilan ta'riflab tushuntira olmaydi, balki o'zi bilmagan holda buni salbiy xulq orqali atrofdagilarga bildiradi. Bola buni atayin qilmaydi. Shunchaki, e'tiborga tushish uchun o'zini boshqa yana qanday tutishi mumkinligini bilmaydi. Bu erda bolaga kattalarning yordami va ko'magi juda zarur bo'ladi.

Muammo yechimi qanday?

O'zini " yomon " tutayotgan bolaning xulqi ortidagi sababni bilish va bolaga yordam berish uchun ota-ona o'ziga quyidagi savollarni berishi kerak: Bola mendan nima istaydi? Unga qanday yordam bera olaman?

Ota-ona bu savollarga javob qidirsam muammoning ildizini ko'ra olishi va bolaga yetishmayotgan e'tiborni bera olishiga yordam beradi. Yodda tutish kerakki, bola o'zining e'tiboriga muhtojligini o'zi bilmaydi! Uhali yosh bulgani uchun buni tushunmaydi, lekin tushunmagani bilan uning e'tiborga va mehrga bo'lgan ehtiyoji kamaymaydi. Faraz qilaylik, siz kuni bilan ish go'ng'iroqlariga javob berish bilan bandsiz. Bola esa o'ziga sizning e'tiboringiz etishmayotganini biladi deylik. Shunda u yoningizga kelib: Onajon (yoki otajon),siz kuni bilan bandsiz. Menga esa sizning e'tiboringiz etishmayapdi. Men borligimni unutgandaysiz deb his qilyapman. Bu esa meni tushkunlikka tushiryapdi. Menga ozgina vaqt ajrata olasizmi? Men e'tiboringizga to'yib olsam, bugun o'zimni ancha yahshi his qilgan bo'lar edim",deb hech qachon aytmaydi. Bola o'ziga aynan e'tibor yetishmayotganini o'zi tushunmaydi, lekin buni tushunmasa va bilmasa ham uning ichidagi bo'shliq to'lib qolmaydi. Bunday holda bola har bir kichik narsa uchun injiqlanishni boshlaydi, ishlaringizni qilayotganingizda sizga halaqit qilaveradi, siz esa bola injiqlanavergani uchun asabiylashasiz va bolaga unga etishmayotgan e'tibor va diqqatni salbiy ko'rinishda bo'lsa ham berasiz. Yomon xulq o'ziga salbiy bo'lsa ham e'tibor qaratadi. Shuning uchun bunday xulq qayta qayta takrorlanaveradi. Bola oldingizga kelib: "Otajon (yoki onajon), meni doim yosh boladek ko'rib fikrlarimni umuman inobatga olmaysiz. Men o'zimni shaxs sifatida his qilmayapman, bu esa meni meni tushkunlikka tushuryapdi. Keling bir-birimizni eshitaylik. Mening ham o'z fikrim bor. Meni ham eshiting iltimos", demaydi. U bunday deyish o'rniga nima qiladi? Ensasini qotiradi, bo'ysunmaydi yoki aytganingizni teskarisini qiladi. Bu bilan o'zining shaxs ekanini sizga yoki o'ziga ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bola e'tibor va izzatni ijobiy ko'rinishda ololmasa, uni salbiy ko'rinishda bo'lsa ham oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N. —Umumiy psixologiyal. T.: —Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi : 2009.
2. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. —Psixologik xizmatl.T. —Fan va texnologiyalar nashriyoti 2014 y.